



HUDUDNING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ISHLARNING TELEKO`RSATUVLARDA YORITILISHI

Muxtar Umbetov

QDU.Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti Jurnalistika
(faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18277502>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 13-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 17-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

*iqtisodiy journalist, vizualizatsiya,
intervyu, reportaj.*

ABSTRACT

Ushbu ilmiy ishda asosan biz telekanallarda efirga uzatilayotgan hududlarning iqtisodiy salohiyatini aks ettiruvchi ko'rsatuvlarga to'xtaldik. Umuman mazkur yo'nalishdagi ko'rsatuvlarni yoritish usullari, jurnalistika formatlari, jurnalist mahoratini o'rganib, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni o'rgandik. Iqtisodiy yo'nalishdagi ko'rsatuvlar bugun Qoraqalpog'iston telekanallarida qay tarzda tomoshabinlarga yetkazilayapdu? Mazkur savolga atroflicha javob izladik

Jurnalistika rivojlanishi bilan uning janrlari ham paydo b'oldi. Vaqt o'tib esa, OAVlarning ham ro'li oshdi. Bu o'rinda matbuot, radio, televideniye va internet brogan sari insonlarga so'nggi yangilik va xabarlarni yetkazishda asosiy muhim qurollardan biriga aylanib ulgurdi. Bunda vaqt o'tib esa, televideniye keng ommaga in'om etilishi ko'pchilikni hayratga soldi. Masalan, yurtimizda 1956-yilning 5-noyabridan Toshkentda televizion ko'rsatuvlarni muntazam efirga uzatish amalga oshirilgan. "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2020-yil 5-noyabr kungi sonida shunday yozilgan: "Insoniyat tarixidagi buyuk kashfiyotlardan biri – televizor Toshkentda yaratilganini ko'pchilik yaxshi biladi. 1928-yil 26-iyul kuni o'zbekistonlik ixtirochilar B.Garabovskiy va I.Belyanskiy tomonidan yaratilgan ilmiy-texnik ishlanma – "telefot" maxsus komissiya sinovidan o'tkazilib, dunyoda birinchi televizor paydo bo'lishiga sabab bo'ldi va maxsus patent berildi".¹ Yilim Paul Nipkov. Bu o'rinda uni eslab o'tmaslikning iloji yo'q. Aynan u sababli maxsus tirqishli disk yaratilgan. Bu qurilma tasvirlarni ekranga uzatish uchun skaner qilgan. U XIX asr boshlaridagi ilk televizorlarning ajralmas qismi edi. Bu innovatsiyadan ilhomlangan shotlandiyalik olim Jon Berd mexanik telepriyomnikni yaratgan va uni ko'p miqdorda ishlab chiqarish maqsadida aynan shu nomdagi korporatsiyaga asos solgan. O'sha paytdagi televizion tizim zamonaviy variantga o'xshamasdi: u faqat suratni ko'rsatardi, ovozni yetkazib bermas edi.² Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari, boshqa ko'plab mamlakatlarda milliy hukumatlar ko'proq radioeshittirishni tashkil etish va rivojlantirish ustidan nazoratni o'z zimmlariga olgan. "Biroq, so'nggi yigirma yil ichida, kabel, sun'iy yo'ldoshlar va Internet kabi yangi texnologiyalar, shuningdek, global iqtisodiyotning

¹ "Yangi O'zbekiston" 2020-yil 5-noyabr kungi soni

² <https://kun.uz/news/2018/09/10/dunedagi-ilk-telekursatuv-kajsi-ekanini-bilasizmi>

kengayishi va odamlarning dunyo bo'ylab harakatlanishi tufayli rag'batlantirilgan televideniyeining o'ziga xos milliy xarakteri buzilishi kuzatilgan. Michele Hilmes tomonidan muharrirlangan "Televizion tarixi kitobi"da quyidagicha yozgan: "Globallashuvning ushbu yangi holati, milliy teleradioeshittirish institutlari tomonidan qat'iy qarshilikka uchragan bo'lsa-da, televideniye tarixining qanchalik tor ma'noda milliy bo'lganligini tan olishga olib keldi. Ushbu to'plam milliy chegaralarni kesib o'tuvchi madaniy tarix bilan shug'ullanadigan kam sonli asarlardan biridir, ammo u hali ham Buyuk Britaniya va Qo'shma Shtatlardagi televideniye tarixining fundamental ravishda alohida ekanligini e'tirof etishi kerak"³.

Yillar o'tib esa, televideniyeida yangidan-yangi ko'rsatuvlar efirga uzatilib, bu tomoshabinlar uchun ham yangiliklardan xabardor bo'lish imkonini berdi. Albatta, bunda iqtisodiy ko'rsatuvlarning ham soni oshib bormoqda. Ularda esa, hududlarning rivojlanishi, o'zgarishlar journalist mahorati orqali yetkazilmoqda. "Audiovizual jurnalistikaning dolzarb muammolari" kitobida O'zMU "Teleko'rsatuv va radioeshittirish" kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Farxod Ro'ziev shunday yozadi: "Teledasturlardan boshqa qator soxalar qatorida iqtisodiy mavzuga oid ko'rsatuvlar ham o'rin olgan-ki, ular tomoshabinlarga respublikamiz taraqqiyotining asosi bo'lgan iqtisod, uning rivojlanish tamoyillari, muammolari haqida atroflicha ma'lumotlar yetkazib beribdi"⁴. Olim O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi misolida iqtisodiy ko'rsatuvlarni tahlil qilgan. Biz esa Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Jaslar TV" telekanalida mazkur yo'nalishdagi ko'rsatuvlarning formatini o'rganishga harakat qildik. 2018-yili tashkil etilgan mazkur telekanalda hozirda ko'pgina ko'ngil-ochar, bir information dastur va ijtimoiy ko'rsatuvlar efirga berilmoqda. Bunda "Qaraqalpaqstan online" information dasturida biz izlayotgan hududning iqtisodiy salohiyatini aks ettiruvchi videomateriallar tayyorlangan. Masalan, dasturning 14/08/2025 sonida taxtakopir tumanida yangidan ish boshlagan "Kausar-tegirmon" MChJ haqida so'z etilgan. Mazkur lavhada korxona haqida bir qator ma'lumotlar berilib, bu loyihaning tuman aholisi uchun qanchalik foydaliligi, hududning iqtisodiy tomonidan rivojlanishiga qo'shgan xissasi ochib berilgan va quyidagicha talqin qilingan: "Улқума бахасқ 878,0 мың АҚШ доллары мугдарына тен бол бул қарханаҒА Президентимиздің тапсырмасына тийқарланып, жойбар ушын жеңиллетилген кредит қаржылары ажыратылып, заманагөй технологиялар жәрдеминде жүн шийки затын жууыў, сайлап алыў ҳәм пресслеў процесслери жолға қойылды."

Mazkur dasturning 29.10.2025 sonida esa Beruniy tumani haqida so'z boradi⁵. Bunda tumandagi "Biybazar" MFYda yashovchi tomorqa yeridan unumli foydalanayotgan fuqarolarning faoliyati yoritilgan. Qural Bekmuratov 16 sotox yer maydonidan samarali foydalanib mo'l hosil olayotgani aks etgan. Bu materialda ham tumanning xususan, "Biybazar" mahallasining ijtimoiy-iqtisodiy tomondan rivojlanayotganini yaqqol ko'rish mumkin. Bunday misollarni yana ko'p keltirish mumkin.

Umuman olganda bugun "Jaslar TV" telekanalining "Qaraqalpaqstan online" information dasturining o'zida hududlarning iqtisodiy salohiyatini aks ettiruvchi videomaterial, lavhalar ko'p uchraydi. Bunda esa, muxbir va jurnalistlarning mahorati talab darajasida ekanliklarini

³ Michele Hilmes "The television history book"

⁴ "Audiovizual jurnalistikaning dolzarb muammolari" Toshkent-2008

⁵ https://t.me/jaslar_tv_online

ham aytish joiz. Iqtisodiy yo`nalishdagi ko`rsatuvlar bu katta kuch, bilim va kuch talab qiladi. Bugun davlatimizda olib borilayotgan islohotlar hududlarning yanada rivojlanishi, fuqarolarning turmush tarzining yaxshilanishiga zamin yaratmoqda. Mana shunday ishlarning keng ommaga yetib borishida esa, televideniye, jumladan, iqtisodiy ko`rsatuvlarning o`rni alohida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Yangi O`zbekiston" 2020-yil 5-noyabr kungi soni
2. Kun.uz
3. Michele Hilmes "The television history book"
4. https://t.me/jaslar_tv_online

